

BRONXIAL ASTMA KASALLIGI: ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI VA ZAMONAVIY DAVOLASH YONDASHUVLARI

Sariosiyo Abu Ali ibni Sino
nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi maxsus fan kafedراسي
Terapiya fani o'qituvchisi
Inoyatullayeva Shaxriniso

Annotatsiya

Mazkur maqolada bronxial astma kasalligining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, klinik belgilari, tashxislash usullari hamda zamonaviy davolash va profilaktika yo'llari ilmiy asosda yoritilgan. Bronxial astma surunkali yallig'lanishli nafas yo'llari kasalligi bo'lib, uning tarqalishi dunyo miqyosida ortib bormoqda. Maqolada kasallikni erta aniqlash, individual davolash rejalarini ishlab chiqish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: bronxial astma, nafas yo'llari, allergiya, yallig'lanish, bronxospazm, inhalyatsion terapiya.

Аннотация

В данной статье рассматриваются этиология, патогенез, клинические проявления, методы диагностики и современные подходы к лечению бронхиальной астмы. Бронхиальная астма является хроническим воспалительным заболеванием дыхательных путей, распространённость которого во всём мире продолжает расти. Особое внимание уделено вопросам ранней диагностики, индивидуализации терапии и улучшения качества жизни пациентов.

Ключевые слова: бронхиальная астма, дыхательные пути, аллергия, воспаление, бронхоспазм, ингаляционная терапия.

Annotation

This article discusses the etiology, pathogenesis, clinical features, diagnostic methods, and modern treatment approaches of bronchial asthma. Bronchial asthma is a chronic inflammatory disease of the airways with an increasing global prevalence. Special attention is paid to early diagnosis, individualized treatment strategies, and improving patients' quality of life.

Key words: bronchial asthma, airways, allergy, inflammation, bronchospasm, inhalation therapy.

KIRISH QISMI

Bronxial astma — bu nafas yo‘llarining surunkali yallig‘lanishi bilan kechuvchi, qaytalanib turuvchi bronxospazm, nafas qisishi, yo‘tal va xirillash bilan namoyon bo‘ladigan kasallikdir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, bronxial astma bugungi kunda global sog‘liqni saqlash muammolaridan biri hisoblanadi.

Kasallik har qanday yoshda uchrashi mumkin bo‘lib, ko‘pincha bolalik davrida boshlanadi. Bronxial astmaning dolzarbligi uning surunkali kechishi, mehnatga layoqatni pasaytirishi va hayot sifatiga salbiy ta‘siri bilan belgilanadi. Shu sababli ushbu kasallikni chuqur o‘rganish va samarali davolash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Bugungi kunda bronxial astma jahon miqyosida keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda 300 milliondan ortiq inson bronxial astma bilan og‘rigan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich yil sayin ortib bormoqda. Kasallik bolalar va kattalarda uchrashi, uzoq davom etishi hamda doimiy tibbiy nazoratni talab qilishi bilan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Bronxial astma nafas yo‘llarining surunkali yallig‘lanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bronxlar giperreaktivligi, qaytalanib turuvchi nafas qisishi, yo‘tal, xirillash va bo‘g‘ilish xurujlari bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu kasallikning klinik kechishi turlicha bo‘lib, yengil shakldan og‘ir, nazorat qilinmaydigan holatlargacha yetib borishi mumkin.

Bronxial astmaning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u bemorlarning mehnat faoliyati, o‘qish jarayoni va umumiy hayot sifatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois mazkur kasallikni o‘rganish, erta tashxislash va samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy tibbiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Bronxial astma — bu bronxlar shilliq qavatining surunkali yallig‘lanishi bilan kechuvchi, bronx lümenining qaytuvchan torayishi va nafas yo‘llarining giperreaktivligi bilan tavsiflanadigan kasallikdir.

Bronxial astma polietiologik kasallik bo‘lib, uning rivojlanishida bir nechta omillar o‘zaro ta‘sirlashadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bronxial astmaning rivojlanishida irsiy moyillik muhim rol o‘ynaydi. Agar ota-onalardan biri allergik kasalliklar bilan og‘rigan bo‘lsa, bolada astma rivojlanish xavfi bir necha barobar ortadi.

Havoning ifloslanishi, sanoat chiqindilari, tamaki tutuni, kimyoviy moddalarga uzoq muddat ta‘sir etish bronxial astmaning rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Kasallikning patogeneza bronx shilliq qavatida surunkali yallig‘lanish jarayoni asosiy o‘rin tutadi. Yallig‘lanish mediatorlari (gistamin, leyukotrienlar,

prostaglandinlar) ajralib chiqishi natijasida bronx mushaklarining spazmi yuzaga keladi.

Bronxial astma — bu murakkab, surunkali va ko‘p omilli kasallik bo‘lib, uni samarali boshqarish uchun erta tashxis, individual davolash va doimiy tibbiy nazorat zarur. Zamonaviy davolash usullari yordamida bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Bronxial astmaning etiologiyasi. Bronxial astmaning rivojlanishida bir qator omillar muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagilardan iborat:

Genetik moyillik – irsiy allergik kasalliklar mavjudligi;

Allergenlar – uy changi, gul changi, hayvon tuklari, oziq-ovqat allergenlari;

Atrof-muhit omillari – havoning ifloslanishi, kimyoviy moddalar;

Infeksiyalar – virusli respirator kasalliklar;

Psixosotsional stress va jismoniy zo‘riqish.

Patogenez mexanizmlari. Bronxial astmaning asosiy patogenetik mexanizmi — bronx shilliq qavatining surunkali yallig‘lanishidir. Yallig‘lanish natijasida bronx devorida shish, shilliq ajralishining ko‘payishi va bronx mushaklarining qisqarishi yuz beradi.

Bu holat bronx lümenining torayishiga va nafas olishning qiyinlashishiga olib keladi. Klinik belgilari-Kasallik quyidagi asosiy belgilar bilan namoyon bo‘ladi: Nafas qisishi (ayniqsa tunda va ertalab); Xirillash; Quruq yoki balg‘amli yo‘tal; Ko‘krak qafasida siqilish hissi.

Diagnostika usullari. Bronxial astmani aniqlashda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

Anamnez va klinik tekshiruv;

Spirometriya;

Pikfloumetriya;

Allergologik testlar;

Laborator tekshiruvlar.

Davolash va profilaktikaning asosiy talablari quidagilardan iborat. Davolashning asosiy maqsadi kasallikni nazorat qilish va xurujlarni oldini olishdan iborat. Asosiy davolash usullari: Inhalyatsion glyukokortikosteroidlar; Bronxolitik preparatlar; Antigistamin dorilar; Bemorni o‘qitish va turmush tarzini sog‘lomlashtirish.

Profilaktika choralariga allergenlardan saqlanish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish va muntazam tibbiy nazorat kiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bronxial astma murakkab va ko‘p omilli kasallik bo‘lib, uni samarali boshqarish uchun erta tashxis, individual yondashuv va kompleks davolash

muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tibbiyot yutuqlari yordamida bronxial astma bilan ogʻrigan bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. GINA. *Global Strategy for Asthma Management and Prevention*.
2. Harrison's Principles of Internal Medicine.
3. Maslov A.A. *Pulmonologiya*. Moskva, 2021.
4. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi klinik protokollari.